

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



RASMIY QABUL QOIDALARI

T O S H K E N T – 2026

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETIGA TALABALARNI O‘QISHGA RASMIY QABUL QILISH QOIDALARI

(Bakalavriat va magistratura bosqichlari uchun)

Mazkur Qoidalar O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizom va “Oliy ta’lim tashkilotlarining magistraturasiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Qoidalar Toshkent davlat sharqshunoslik universitetiga talabalarni o‘qishga qabul qilishning shaffof, adolatli, tanlovli va kamsitishsiz tartibini hamda mahalliy va xorijiy fuqarolar uchun teng imkoniyatlarni belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Rasmiy qabul qoidolari (keyingi o‘rinlarda – Qoidalar) Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining bakalavriat va magistratura ta’lim bosqichlariga O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni o‘qishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

1.2. Qoidalar quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan:

- O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni;
- Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qarori va uning 1-hamda 2-illovalari;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari;
- Universitet ustavi va ichki tartib-qoidalar.

1.3. Qoidalarning maqsadi – Universitetga qabul jarayonining shaffofligini, qabul mezonlarining oldindan e’lon qilinishini, abituriyentlarga teng imkoniyatlar berilishini, qabul qarorlarining hujjatlashtirilishini va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sifat standartlariga muvofiqligini ta’minlashdan iborat.

1.4. Qoidalarda qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar:

abituriyent – Universitetning bakalavriat yoki magistratura ta’lim dasturlariga o‘qishga kirishga nomzod bo‘lgan shaxs;

qabul komissiyasi – Universitet rektorining buyrug‘i bilan tuziladigan, qabul jarayonini tashkil etish va yakunlash bo‘yicha vakolatli organ;

kirish imtihonlari – Davlat komissiyasi va Universitet tomonidan belgilangan test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihonlar, magistratura uchun mutaxassislik imtihonlari;

davlat granti – davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan ta’lim shakli;

to‘lov-kontrakt – abituriyentning o‘z mablag‘i yoki kreditlari hisobidan o‘qishni moliyalashtirish shakli;

oldingi ta'lim natijalarini tan olish – abituriyent oldin olgan rasmiy yoki norasmiy bilim, ko'nikma va malakalarini baholash va Universitetning ta'lim dasturi talablariga moslashtirish jarayoni.

2-bob. Qabulning umumiy tamoyillari

2.1. Universitetga o'qishga qabul quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

shaffoflik – qabul mezonlari, parametrlari va jadvallari oldindan Universitet rasmiy veb-saytida (tsuos.uz) hamda Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy resurslarida e'lon qilinadi;

tenglik – abituriyentlar jinsi, irqi, milliy va ijtimoiy kelib chiqishi, dini, e'tiqodi, jismoniy imkoniyati, oilaviy yoki moddiy holatidan qat'i nazar, teng huquqlarga ega bo'ladi;

raqobatbardoshlik – qabul kirish imtihonlari natijalari va mezonlari bo'yicha tanlov asosida tashkil etiladi;

sifat – qabul jarayoni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan akkreditatsiya standartlariga muvofiq monitoring qilinadi va davriy ravishda qayta ko'rib chiqiladi;

ma'lumotlar himoyasi – abituriyentlar shaxsiy ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni tamoyillariga muvofiq saqlanadi;

huquqlarni himoya qilish – har bir abituriyent qabul natijalari ustidan apellyatsiya shikoyatini berish huquqiga ega.

3-bob. Qabul komissiyasi va uning vakolatlari

3.1. Universitetga o'qishga qabul jarayonlarini tashkil etish uchun har yili Universitet rektorining buyrug'i bilan malakali mutaxassislardan iborat tarkibda Qabul komissiyasi tuziladi. Komissiya raisi lavozim bo'yicha – Universitet rektori.

3.2. Qabul komissiyasi tarkibi Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va rektor buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

3.3. Qabul komissiyasining asosiy vazifalari:

➤ qabul parametrlari va kvotalarini ta'lim dasturlari, ta'lim shakllari va tillar kesimida shakllantirish;

➤ kirish imtihonlari (kasbiy/ijodiy, mutaxassislik, og'zaki/yozma) jadvallari, dasturlari va baholash mezonlarini tasdiqlash;

➤ kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyalari va apellyatsiya komissiyasini tashkil etish;

➤ xorijiy fuqarolar va alohida toifadagi abituriyentlar (ko'zi ojizlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, yetim bolalar) uchun maxsus shart-sharoitlarni belgilash;

➤ qabul natijalarini Bilim va malakalarni baholash agentligining axborot tizimi va Universitet HEMIS tizimi orqali rasmiylashtirish;

➤ qabul jarayoni natijalari bo'yicha hisobotlar tayyorlash va ularni hujjatlashtirish.

4-bob. Bakalavriatga o‘qishga qabul qilish tartibi

4.1. Abituriyentlarga qo‘yiladigan talablar

Universitet bakalavriatiga abituriyent sifatida quyidagi shaxslar ro‘yxatdan o‘tishi mumkin:

- umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotini tugatganlar;
- o‘rta maxsus ta‘lim tashkilotini tugatganlar;
- boshlang‘ich kasbiy ta‘lim tashkilotini tugatganlar;
- O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni kuchga kirguniga (2020-yil 24-sentabr) qadar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi tashkilotini tugatganligi haqida tegishli hujjatga ega bo‘lgan shaxslar;
- xorijiy davlatlarda umumiy o‘rta yoki unga tenglashtirilgan ta‘lim olganligi belgilangan tartibda tan olingan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

4.2. Qabul parametrlari va shakllari

4.2.1. Universitet bakalavriatiga qabul quyidagi parametrlar asosida amalga oshiriladi:

davlat granti (jumladan, ta‘lim granti) asosidagi davlat buyurtmasi parametrlari;

to‘lov-kontrakt asosidagi qabul parametrlari;

maqsadli qabul parametrlari (tegishli vazirlik va idoralar buyurtmasi asosida);

qo‘shimcha imtiyozli qabul parametrlari (Ijtimoiy reyestr, yetim bolalar va boshqalar);

xorijiy fuqarolar uchun to‘lov-kontrakt asosidagi qabul (alohida kvota doirasida).

4.2.2. Ta‘lim shakllari: kunduzgi, kechki va masofaviy ta‘lim. Har bir ta‘lim shakli bo‘yicha qabul parametrlari Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

4.3. Ro‘yxatdan o‘tish va tanlov bosqichlari

4.3.1. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun ro‘yxatdan o‘tish va kirish imtihonlari natijalarini olish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich: har yili 5-iyundan 25-iyungacha – abituriyent test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, ta‘lim tili, hudud va kasbiy (ijodiy) imtihon topshiriladigan oliy ta‘lim tashkilotini tanlaydi;

2-bosqich: test sinovi yakunlangandan so‘ng 15 kun ichida – abituriyent oliy ta‘lim tashkiloti, ta‘lim yo‘nalishi, ta‘lim shakli va tanlov ustuvorligini tanlaydi.

4.3.2. Test sinovlari ona tili, matematika va O‘zbekiston tarixi (majburiy fanlar) hamda tanlangan ta‘lim yo‘nalishiga mos ikkita fan bo‘yicha o‘tkaziladi. Sharqshunoslikning o‘ziga xosligini hisobga olib, ayrim ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar o‘tkazilishi mumkin.

4.3.3. Universitet sharqshunoslik yo‘nalishidagi muassasa sifatida xorijiy tillar bo‘yicha milliy yoki xalqaro sertifikatlariga (B1, B2 va undan yuqori darajalar) ega abituriyentlarga mavjud normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ball berish imtiyozini qo‘llaydi. Sertifikat orqali ball berish tartibi Vazirlar Mahkamasining 578-son qarori va 2019-yil 13-maydagi 395-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

4.4. Talabalikka tavsiya etish va hujjatlarni rasmiylashtirish

Talabalikka tavsiya etilgan abituriyent qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- ta'lim haqida hujjat (attestat yoki diplom) asli va ilovasi;
- imtiyoz huquqini tasdiqlovchi hujjat asli (mavjud bo'lsa);
- shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki ID-karta) nusxasi;
- 3×4 o'lchamdagi 6 dona fotosurat.

5-bob. Magistraturaga o'qishga qabul qilish tartibi

5.1. Qabul talablari

5.1.1. Universitet magistraturasiga bakalavriat yoki unga tenglashtirilgan oliy ta'lim ma'lumotiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'qishga qabul qilinadi.

5.1.2. Magistratura mutaxassisligi abituriyent egallagan bakalavriat ta'lim yo'nalishiga mos yoki turdosh bo'lishi lozim. Mosligi maxsus komissiya tomonidan belgilanadi.

5.2. Qabul mezonlari

Magistraturaga qabul Vazirlar Mahkamasining 578-son qarori 2-ilovasiga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi. Tanlov natijasi quyidagi ko'rsatkichlar asosida shakllantiriladi:

- bakalavriat diplomi GPA ko'rsatkichi;
- xorijiy til bilish darajasi (ta'lim mutaxassisligi bo'yicha B1 dan C1 bo'lgan sertifikatlar uchun qo'shimcha ball).

5.3. Magistraturaga hujjat topshirish

Abituriyent qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- bakalavr diplomi va uning ilovasi asli;
- ilmiy ish tajribasini tasdiqlovchi hujjatlar (mavjud bo'lsa);
- shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi;
- xorijiy til sertifikati;
- 3×4 o'lchamdagi 6 dona fotosurat.

5.4. Talabalikka tavsiya etish

Magistraturaga talabalikka tavsiya etish to'plagan ballarning reyting tizimi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan minimal o'tish ballidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Natijalar Universitet rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

6-bob. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni qabul qilish

6.1. Xorijiy fuqarolar Universitetga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, hukumatlararo kelishuvlar, xalqaro grant dasturlari va universitetning hamkorlik shartnomalari asosida qabul qilinadi.

6.2. Xorijiy abituriyentlar uchun qabul yiliga bir marta – kuzgi (avgust–sentabr) qabul davrida amalga oshirilishi mumkin (ta'lim dasturi va Universitet imkoniyatlaridan kelib chiqib).

6.3. Xorijiy fuqarolarga qo'yiladigan qo'shimcha talablar:

- o'qitish tilini bilish – o'zbek, rus yoki ingliz tilidan muloqot qila olish darajasida;
- tibbiy ko'rik xulosasi va sog'liqni saqlash sug'urtasi;
- o'quv vizasi va yashash uchun ruxsatnomani belgilangan tartibda rasmiylashtirish;
- to'lov-kontrakt mablag'ini moliyalashtirish manbai to'g'risidagi tasdiqnoma.

6.4. Xorijiy abituriyentlar bilan ishlash uchun Universitetda "Xalqaro talabalar bo'yicha ma'lumot xizmati" faoliyat olib boradi. Mazkur xizmat qabul arizalarini ko'rib chiqish, viza va akademik ko'mak bo'yicha xizmatlarni ta'minlaydi.

6.5. Xorijiy abituriyentlarning hujjatlari elektron shaklda qabul qilinishi va onlayn suhbat orqali baholanishi mumkin. Qabul natijalari elektron tarzda rasmiylashtiriladi.

7-bob. Imtiyozlar va alohida toifadagi abituriyentlar

7.1. Universitet quyidagi toifadagi abituriyentlarga qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlarni qo'llaydi:

• Mehribonlik uylari, SOS bolalar mahallalari va oilaviy bolalar uylari bitiruvchilari hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yetim bolalar – qo'shimcha davlat granti asosida;

• Ijtimoiy reyestrغا kiritilgan oila farzandlari – davlat granti asosidagi qabul parametrlariga nisbatan 10 foizgacha qo'shimcha davlat granti;

• nogironligi bo'lgan shaxslar (jumladan, ko'zi ojizlar) – alohida qabul parametrlari doirasida tanlovda ishtirok etish va maxsus sharoitlar yaratish;

• xalqaro va respublika fan olimpiadalari hamda sport musobaqalari g'oliblari – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtihonsiz qabul.

7.2. Imtiyozlar Davlat komissiyasi tomonidan har yili tasdiqlanadigan imtiyozlarning yagona reyestriga muvofiq qo'llaniladi. Bir abituriyentga bir nechta imtiyoz tegishli bo'lsa, ularning qo'llash ketma-ketligi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan belgilanadi.

7.3. Imkoniyati cheklangan abituriyentlar uchun Universitet binolari (auditoriyalar, kutubxona, talabalar turar joylari) jismoniy jihatdan moslashtirilgan bo'lib, kirish imtihonlari uchun maxsus sharoitlar (qo'shimcha vaqt, alohida xona, yordamchi xodim, Brayl alifbosidagi materiallar) ta'minlanadi.

8-bob. Apellyatsiya va shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi

8.1. Universitet rektorining buyrug'i bilan kirish imtihonlari (kasbiy/ijodiy, mutaxassislik, suhbat) natijalari bo'yicha apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi. Komissiya tarkibiga sohaning yetuk mutaxassislari hamda Universitet professor-

o'qituvchilari kiritiladi; kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a'zolari apellyatsiya komissiyasiga kiritilmaydi.

8.2. Apellyatsiya shikoyatlari imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida elektron shaklda qabul qilinadi va apellyatsiya komissiyasi tomonidan uch kun muddat ichida ko'rib chiqiladi.

8.3. Abituriyent apellyatsiya jarayonida shaxsan ishtirok etish huquqiga ega. Komissiya qarori asoslangan, yozma shaklda rasmiylashtiriladi va abituriyentga rasmiy yetkaziladi.

8.4. Test sinovlari natijalari bo'yicha apellyatsiya shikoyatlari Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy veb-sayti orqali yakuniy tanlov natijalari e'lon qilingan kunning ertasidan boshlab o'n kun muddat ichida elektron tarzda taqdim etiladi.

8.5. Apellyatsiya natijasi qoniqarsiz bo'lsa, abituriyent qonunchilikda belgilangan tartibda yuqori turuvchi organlarga yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.

9-bob. Qabul jarayonining sifat menejmenti va shaffofligi

9.1. Universitet qabul jarayonining sifatini ta'minlash uchun ichki nazorat tizimini joriy qiladi.

9.2. Shaffoflik mexanizmlari:

- qabul qoidalari, parametrlari, jadvallari va imtihon dasturlari Universitet rasmiy veb-saytida (tsuos.uz) ochiq tartibda e'lon qilinadi;

- kasbiy (ijodiy) imtihonlar va og'zaki suhbatlar videoyozuvga olinadi va kamida 3 yil saqlanadi;

- imtihon ishlari shifrlash tizimi orqali tekshiriladi (anonim baholash);

- qabul natijalari elektron tarzda rasmiylashtiriladi va abituriyentlarga ochiq taqdim etiladi;

- qabul komissiyasi yig'ilishlari bayonnomalashtiriladi.

9.3. Qabul jarayonida abituriyentlardan olingan shaxsiy ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni va GDPR tamoyillariga muvofiq qayta ishlanadi, saqlanadi va himoya qilinadi.

10-bob. Yakuniy qoidalar

10.1. Mazkur Qoidalar Universitetning rasmiy veb-saytida to'liq matnda e'lon qilinadi.

10.2. Qoidalarga o'zgartirish va qo'shimchalar Universitet Kengashining qarori bilan kiritiladi. O'zgartirishlar amaldagi qabul davriga ta'sir ko'rsatmaydi.

10.3. Mazkur Qoidalar Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qarori va undan keyingi o'zgartirishlar asosida har 3 yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqiladi.

10.4. Qoidalarda nazarda tutilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida hal etiladi.